




JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES

VOLUME | 3 ISSUE | 7 DECEMBER 2025



AN ACADEMIC PLATFORM FOR IN-DEPTH
ANALYSIS OF THE CONTEMPORARY WORLD

VOLUME | 3 ISSUE | 7 | DECEMBER | 2025




JCWS

AHOLIGA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH MUASSASALARI FAOLIYATI:REJA VA AMALIYOT NATIJALARI (O'ZBEKISTONDA SOVET DAVRI MISOLIDA)

Nosirova Feruza Davronqulovna

O'zR IIV Jizzax akademik litseyi o'qituvchisi
e-mail: n.bunyod2020@jbnuu.uz



ANNOTATION:

Maqolada O'zbekistonda sovet davrida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimining shakllanishi, yo'nalishlari, moddiy-texnik ta'minoti hamda ba'zi muammolari xususida so'z yuritgan. Jumladan, XX asrning 20-yillarida O'zbekistonda aholining kundalik turmushida mahalliy hunarmand va kosiblarning tutgan o'rni, tizimni shakllanishi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish muassasalarining viloyatlardagi umumiy ahvoli va Ittifoq respublikalaridagi ko'rsatkichlar arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar asosida yoritgan.

KEYWORDS:

hunarmand, tizim, maishiy xizmat ko'rsatish punkti, qishloq, jamoa xo'jalik, Ittifoq respublikalari, «sotsialistik turmush tarzi».

Accepted Date:
December 15, 2025,
Published Date:
December 25, 2025

Journal Website: <https://d-pressa.com/index.php/jcws/>

License



This work is licensed under
a [Creative Commons Attribution-
NonCommercial-NoDerivatives
4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

Kirish

O'zbekistonda kommunistik tuzum davrida nafaqat siyosiy hayot, balki iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarining rivoji haqida gap bo'lishi mumkin emasdi. Boisi davlat va jamiyat boshqaruvidan xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarigacha kommunistik mafkura ta'sirida qolgan, o'zining barcha ichki va tashqi siyosatdagi suverenitetidan mahrum bo'lgan mamlakatning munosib yashash sharoitini yaratish imkoniyati deyarli yo'q edi. Shunday ekan bolsheviklar hokimiyati yillarida yurtimiz tarixining ziddiyatli, ayni vaqtda ayanchli tarixi bugungi ozodlik va taraqqiyot zamonini qadriga yetish uchun achchiq saboqdir.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasi xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini o'zida birlashtirib, aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tizimdir. Uning tarkibida savdo, umumiy ovqatlanish, madaniy-ma'naviy tashkilotlar, transport va aloqa tizimi bilan bog'liq sohalar, uy-joy va kommunal xo'jalik, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va boshqa ko'plab sohalarni kiritish mumkin.

O'tgan asrning sovet hukumati yillarida maishiy xizmat ko'rsatish tizimi eng oqsagan sohalardan biri edi. Bunday olganda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasi xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini birlashtiradigan va odamlarning kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tizim hisoblanadi. Bu tizimga kiruvchi savdo, umumiy ovqatlanish, madaniy-ma'naviy muassasalar, transport xizmati, aloqa tizimi, uy-joy va kommunal xo'jalik, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va shu kabi ko'plab boshqa sohalar aholi kundalik hayoti uchun eng zaruriy talab va ehtiyojlardan kelib chiqadi. Bir so'z bilan aytganda aholi kundalik hayotini maishiy muassasalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Shunday ekan, maishiy muassasalar rivojiga e'tibor millatning, xalqning va jamiyatning munosib turmush sharoitini yaratishga bo'lgan e'tibor deb aytish mumkin. Afsuski, sovet tuzumi davrida ana shunday tizimni rivojlantirishga panja ortidan qaraldi. Natijada, respublikamiz bu sohada Ittifoqdosh respublikalardan anchagina past ko'rsatkich bilan qolib ketdi.

Asosiy qism

Qadimdan yurtimiz hududida hunarmandchilikning ko'plab yo'nalishlari: kulolchilik, temirchilik, kosibchilik, me'morchilik, duradgorlik va boshqa sohalarda o'z maktabini yaratgan hunarmandchilik markazlari faoliyat ko'rsatgan [1]. Hattoki, bugungi kunga qadar ham ularning ayrimlari otabobolaridan qolgan kasb-korlarini davom etdirib kelmoqdalar. Ammo, sovet hokimiyati o'rnatilgach, milliy hunarmandchiligimizning asriy an'alariga e'tibor birmuncha susaydi. Xuddi shu davrlardan boshlab milliy hunarmandlarimiz tomonidan bajarilayotgan kiyim tikish, etikdo'zlik, uy-ro'zg'or buyumlarini yasash kabi faoliyat yil sayin qisqara boshlandi.

Sovet hukumati tomonidan Ittifoq respublikalarida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va rivojlantirishda aholining demografik o'ziga xosligi, tug'ilish miqdori, milliy urf-odatlarini o'ziga xosligi qishloq aholisining ko'pligi, iqlim sharoiti, aholining yuqori daromadi hamda boshqa sabablarga jiddiy e'tibor qaratilmadi. Asosiysi, sohaning faoliyati va natijalari Ittifoq respublikalarida turlicha bo'ldi.

Sovet hukumati tashkil topganidan keyin, bu kasb vakillari faoliyati bir muncha o'zgardi. Avvalo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar davlatga daromad keltirishi maqsadida turli artellarga birlashtirila boshlandi. Xususan, maishiy xizmat ko'rsatishda aholiga xizmat

ko'rsatuvchi hunarmandlarni artellar tarkibiga birlashtirish maqsadida, Turkiston hunarmandlari ittifoqi tashkil topdi. 1921 yilga kelib, Toshkent shahrida 50 ta sartaroshlarni birlashtirgan maxsus artel faoliyati ko'rsata boshladi[2].

1931 yil 10 mayda SSSR Xalq komissarlar Kengashi VKP (b) Markaziy qo'mitasining maxsus qarorida «Iste'molchilar kooperatsiyasi haqida»gi qarorida tizim faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, iste'molchilar kooperatsiyasi oldidagi vazifalarga, kooperativ va davlat savdo tashkilotlarini kengaytirish kabilar ko'zda tutildi. Ushbu qarorda iste'molchilar kooperatsiyasi tarkibidagi bir necha sohalarni tegishli vazirlik va idoralar tassarufiga o'tkazish belgilandi. Jumladan, sartaroshxonalar va tikuvchilik ustaxonalarini-kosib hunarmandlar kooperatsiyasiga, kir yuvish punktlarini shahar kengashlari tassarufiga o'tkazilgan[3].

1931 yil Kommunal korxonalar negizida Mehmonxona-hammom tresti (Gostinichno-bannyi trest) tashkil etildi. Ushbu trest Toshkent shahar Ishchi, dehqon va qizil armiyachi deputatlar kengashi ijroiya qo'mitasiga qarashli Kommunal xo'jalik boshqarmasi tarkibida edi. Aholiga hammom, mehmonxona, kir yuvish xonasi, kiyimlarni bo'yash, restoranlar hamda sartaroshxonalar faoliyatini boshqarar edi[4].

Umuman olganda, XX asrning 30-40 yillarida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish yo'nalishlaridan biri bo'lgan sartaroshxona, hammom va kir yuvish punktlari shahar va tuman Ijroiya qo'mitalaridagi Kommunal xo'jalik bo'limi qoshidagi kommunal trestlar tarkibida bo'ldi.

XX asrning 30-yillari ikkinchi yarmida O'zbekistonda maishiy xizmat ko'rsatish sohasi boshqa Ittifoq respublikalarga nisbatan ancha orqada

bo'lgan. Ya'ni, kishi boshiga oyoq kiyimni ta'mirlash Moskva viloyatida 1,07 juftga, Gruziyada 0,6 juftga, Ozarbayjonda 0,5 juftga va O'zbekistonda 0,15 juftga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Shuningdek, XX asrning 60-80 yillarida ham O'zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimi Ittifoq respublikalariga nisbatan oxirgi o'rinlarda bo'lib kelgan[5].

Sovet hukumati davrida O'zbekistonda maishiy xizmat muassasalarining ahvoli birmuncha oqsaganligini arxiv ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Jumladan, O'zbekistonni xuddi shu yo'nalishlar bo'yicha 1963 yilda boshqa Ittifoqdosh respublikalarga nisbatan holatini qayd etib o'tish joizdir. Chunonchi, arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, ishlab chiqarish bo'yicha kishi boshiga yillik xizmat ko'rsatish qiymati Rossiyada 4 rub. 38 tiyin, Ukrainada 3 rub. 76 tiyin, Belorussiyada 3 rub. 86 tiyin, Litvada 4 rub. 94 tiyin, Latviya da 8 rub. 14 tiyin, Estoniyada 8 rub. 63 tiyin, Qirg'izistonda 3 rub. 16 tiyin, Qozog'istonda 2 rub. 91 tiyin va boshqa respublikalarda ham shu kabi bo'lib O'zbekistonda 2 rub. 46 tiyinni tashkil qilib, oxiridan uchinchi o'rinda turgan[6].

A.Valievning «Vajnye zadachi slujby byta» maqolasida 1967 yillardagi bir holatni tasvirlab beradi. Respublikada yuz minglab aholi oyoq kiyim, ustki kiyimlarni ta'mirlash va tikish, uy-ruzg'or buyumlarini sozlash ustaxonalariga ehtiyoji borligini, respublika bo'yicha trikotaj mahsulotlarni ta'mirlaydigan yagona ustaxona mavjudligini, 52 ta ijara punktlari borligini, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish vazirligi aybi bilan respublikadagi yirik tuman markazlarida umuman buyurtmalarni qabul qilish punktlari tashkil etilmaganligi, bir qator shaharlarda esa bunday punktlarning yetishmasligi, narsani ta'mirlatishga berish o'sha zahotiyoyq yechib bo'lmas muammoga aylanishini

qayd etadi. Shuningdek, muallif tomonidan jamoa va davlat xo'jaliklarida juda kam miqdorda maishiy xizmat muassasalari qurilayotganligi, joylarda xizmat ko'rsatishning turi bir nechadan oshmayotganligi, Andijon viloyatining 121 jamoa xo'jaligida faqat sartaroshxona hamda oyoq kiyimlarni ta'mirlash ustaxonalari mavjudligi, Buxoro viloyatidagi 38 ta jamoa xo'jaligida maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari umuman yo'qligi, Sirdaryo viloyatining aholisi o'sha vaqtda 9.000 nafar bo'lgan «Forish» davlat xo'jaligida bir dona fotograf va oyoq kiyimlarni ta'mirlash ustasi bo'lganligi, Namangan viloyatidagi shu kabi ahvollar ma'lum qilinadi[7]. Bundan tashqari, maishiy xizmat muassasalari uchun barpo etilgan binolar mahalliy hokimiyat vakillari tomonidan boshqa idoralarga foydalanish uchun berib yuborilgan.

Sovet hukumati xalq xo'jaligining 1968 yilga oid statistik ma'lumotlarida quyidagi ma'lumotlar yoritilgan. Ya'ni, o'sha yillarda Ittifoq respublikalari aholisini milliy daromadi har xil bo'lib, O'zbekiston bu ko'rsatkichlar bo'yicha 9-10 o'rinda turgan[8]. Shuningdek, respublikalardagi maishiy xizmat ko'rsatish muassasalarini miqdorini solishtirsak, ayrim respublikalarda muassasalar soni aholiga nisbatan ikki barobar ko'p bo'lganligini guvohi bo'lamiz. Bu holatlar esa albatta, respublikada aholining maishiy xizmat muassasalaridan foydalanishlarida salbiy ta'sir ko'rsatgan.

1975 yilda Ittifoq respublikalarida kishi boshiga rubl hisobida maishiy xizmat ko'rsatilganligi hajmini umumlashtiradigan bo'lsak, Latviyada 45 rubl, Estoniyada 40 rubl, Litvada 34 rubl, Ukraina va Belorussiyada 27 rubldan, RSFSR va Moldaviya 26 rubldan, Gruzviyada 23 rubl, Armanistonda 22 rubl, Qozog'iston va Qirg'izistonda 21 rubl bo'lib,

O'zbekistonda bu ko'rsatkich 19 rublni tashkil etar edi[9].

O'zbekiston Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish vazirligining hukumat rahbarlari ishtirokidagi 1980 yilni yakunida bo'lib o'tgan tezkor yig'ilishida O'zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimi Ittifoq respublikalari bilan qiyoslaganda 14 o'rinda turganligi va sohani rivojlanishi achinarli holatda ekanligi eslatib o'tiladi[10].

Ta'kidlab o'tish joiz, tadqiqotchi olimlar tomonidan aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimi faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan omillar jumlasida, O'zbekistonda qishloq aholisining nisbatan ko'pligi, aholining yashash hududi, urf-odati va yoshi kabilar bayon qilindi. Ammo, aholining mehnatlari uchun to'lanadigan o'rtacha ish haqi miqdori inobatga olinmadi. Vaholanki, O'zbekistondagi ishchi va xizmatchilarning o'rtacha oylik maoshi miqdorini Ittifoq respublikalariga qiyoslaganda 1940 va 1960 yillarda 13 o'rinda, 1970 yilda 10 o'rinda bo'lgan edi[11].

1973 yil Qoraqalpog'istonda qishloq aholisiga yakka tartibda poyabzal tikish (ishlab chiqarish) ishlari bilan 17 nafar xizmat ko'rsatish xodimi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, kiyim tikish bo'yicha bir nafar xodim bo'lgan. Bu hududdagi 36 ta jamoa va davlat xo'jaliklarida maishiy xizmat muassasalari tashkil etilmagan[12].

Xulosa

Shunday qilib, O'zbekistonda maishiy xizmat ko'rsatish sohasida olib borilgan ishlar ko'ngildagidek bo'lmagan. Insonga munosib shart-sharoit yaratish, ijtimoiy tizimni yaxshilash borasida olib borilgan islohotlar respublikada panja orasida qarab kelingan. Natijada, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish juda orqada qolib, Ittifoq respublikalari orasida past ko'rsatkichlardan birida turgan. Bu mamlakatimizda kommunistik mafkura

davrida maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari aholining bu boradagi ehtiyojlarini qondira olmaganligini ko'rsatadi.

Селское хозяйство Узбекистана. 1974. № 11. – С.9.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана XIX-XX вв. - Ташкент: ФАН, 1986. – С.17.; Стасько В.Н. Служба быта в центре внимания. –Ташкент: Узбекистан, 1969. – С.6.
2. Стасько В.Н. Служба быта- в центре внимания. –Ташкент: Узбекистан, 1969. –С.7.
3. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам (1929-1940), II -том, - Москва:Политиздат, 1967. –С.301-305.
4. Тошкент шаҳар Давлат архиви (ТШДА), 31- фонд, 1-рўйхат.
5. Собчак А.А. Руководства местных Советов депутатов трудящихся бытовым обслуживанием населения (по материалам УзССР) Дисс... канд. юрид. наук. - Ташкент, 1971. – С. 4.
6. O'zR MA R.2697-fond, 1-ro'xat, 276-ish, 74-75 varaqlar.
7. Валиев А. Важные задачи службы быта. //Экономика и жизн. – Ташкент, 1967. -№ 9. – С. 86-87.
8. Народное хозяйство СССР в 1967. Стат.ежегодник.-Москва: Статистика, 1968. – С. 9, 772-774.
9. СССР. Внутренняя торговля и бытовое обслуживание. Таблица-12, Академик. Электрон ресурс.
10. O'zR MA R.2698-fond, 1-ro'xat, 1357-ish, 1-3 varaqlar.
11. Народное хозяйство СССР за 70 лет. Юбилейный статистический ежегодник. –Москва: Финансы и статистика, 1987. Электрон ресурс.
12. Развитие службы быта (В.Гладкова–начальник отдела коммунального хозяйства и бытового обслуживания населения ЦСУ УзССР)//